Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning rivoji bir qator muammolar bilan kechadi. Xususan, axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, fake (soxta) axborotlar va madaniy identifykatsiya masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi mas'uliyatli hamkorlikni taqozo etadi.

Istiqbol nuqtayi nazaridan, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni barqaror rivojlantirish uchun:

- axborotdan ongli va mas'uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- tanqidiy va falsafiy tafakkurni rivojlantirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash zarur.

Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, inson omilining ustuvorligini saqlab qolish va ma'naviy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlar tizimi mazmun va shakl jihatidan chuqur transformatsiyaga uchramoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji ijtimoiy aloqalarning an'anaviy mexanizmlarini qayta shakllantirib, real va virtual makon o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirmoqda. Natijada ijtimoiy munosabatlar tobora moslashuvchan, tarmoqli va dinamik xarakter kasb etmoqda.

Axborot oqimlarining intensivligi tafakkur transformatsiyasiga sabab bo'lib, unda fragmentarlashuv, pragmatiklashuv va sirtqi idrokning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, shaxsning moslashuvchanligini oshirsa, ikkinchi tomondan, chuqur tahliliy fikrlash va ma'naviy barqarorlikka bo'lgan ehtiyojni yanada dolzarb etmoqda. Shu bois axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy ongni rivojlantirish masalasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sharoitda ijtimoiy munosabatlarning barqaror rivojini ta'minlash axborot madaniyatini yuksaltirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. New York, 1973.

(2). Toffler A. The Third Wave. New York, 1980.

(3). Qiyom Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. Toshkent, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2022.

(4). Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford, 1996.

(5). Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge, 2000.

Berdikulova Surayyo Aslamovna (O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti (PhD),
Xuramova Ungaloy Xolboyevna (O'zbekiston Milliy universiteti magistranti; e-mail: xurramxurramova@gmail.com)

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY MEROSIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARIDAN DAVLAT SIYOSATI VA JAMOATCHILIKDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosi davlat siyosati va jamoatchilik hayotida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda tutgan o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, qadimiy axloqiy tamoyillarning bugungi jamoatchilik siyosati, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Sharq mutafakkirlari, axloqiy qadriyatlar, davlat siyosati, jamoatchilik, ma'naviy meros, siyosiy madaniyat, ijtimoiy taraqqiyot.*

Бердикулова Сурайё Асламовна (доцент (PhD) Национального университета Узбекистана),
Хурамова Унгалой Холбоевна (магистрант Национального университета Узбекистана;
E-mail: xurramxurramova@gmail.com)

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ ИЗ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль научно-духовного наследия восточных мыслителей в формировании нравственных ценностей в государственной политике и общественной жизни. Также на основе эмпирических данных раскрывается влияние древних нравственных принципов на современную общественную политику, социальную стабильность и укрепление гражданской ответственности.*

Ключевые слова: *восточные мыслители, нравственные ценности, государственная политика, общественность, духовное наследие, политическая культура, социальное развитие.*

Berdikulova Surayyo Aslamovna (Associate Professor (PhD), National University of Uzbekistan),
Khuramova Ungaloy Kholboyevna (Master's Student, National University of Uzbekistan;
E-mail: xurramxurramova@gmail.com)

THE SIGNIFICANCE OF USING MORAL VALUES FROM THE SCIENTIFIC HERITAGE OF EASTERN THINKERS IN THE STATE POLICY AND PUBLIC LIFE

Annotation. *This article analyzes the role of the scientific and spiritual heritage of Eastern thinkers in shaping moral values within state policy and public life. Based on empirical data, the study also highlights the impact of ancient moral principles on contemporary public policy, social stability, and the strengthening of civic responsibility.*

Keywords: *Eastern thinkers, moral values, state policy, public life, spiritual heritage, political culture, social development.*

Kirish (Introduction). Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy-ma'naviy merosi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, nafaqat o'z davri, balki butun insoniyat tamadduni taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Ilmiy meros asrlar davomida shakllangan axloqiy, ijtimoiy, siyosiy va jamiyat boshqaruvi tizimini hamda shaxs kamoloti haqidagi qarashlari bugungi globallashuv va axborot tezkor almashuvi sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, davlat siyosatida axloqiy qadriyatlarning o'rni kuchayib borayotgan hozirgi davrda Sharq mutafakkirlarining merosiga qaytish va undan jamoatchilik ongini shakllantirishda foydalanish zaruriyati ortib bormoqda [1].

XXI asrda davlatning barqaror rivojlanishi siyosiy mexanizmlar samaradorligidan tashqari, jamiyatda axloqiy muhitning mustahkamligi, ijtimoiy birdamlikning barqarorligi va ma'naviy qadriyatlarning hayotiy faoliyatga singdirilishi bilan ham bevosita bog'liq. Xususan, Imom Buxoriy kabi allomalarning asarlarida jamiyatdagi axloqiy kamolotni davlat barqarorligining muhim omili sifatida ko'rsatadi. Beruniy esa ilm, haqiqatparvarlik va adolatning davlat boshqaruvidagi ustuvor ahamiyatini ilmiy asoslaydi. Forobiy esa ijtimoiy adolat va odob-axloqni davlat siyosatining markaziy elementlari sifatida talqin qilgan. Ularning qarashlari nafaqat diniy-ma'naviy hayot, balki davlat siyosati va jamoatchilik uchun ham beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan konseptual asos vazifasini bajaradi [3]. Bugungi globallashuv jarayonida davlat siyosati va jamoatchilik tizimida ma'naviy qadriyatlarga tayanish, rahbarlarning axloqiy mas'uliyatlarni oshirish, jamiyatda adolat va ishonch tamoyillarini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biridir [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sharq mutafakkirlarining axloqiy-ma'naviy ilmiy merosi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular davlat siyosati va boshqaruvi, jamiyat tartibi va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida ma'naviy qadriyatlarning o'rni juda ahamiyatli ekanini ta'kidlaydi. Avvalo, Sharq uyg'onish davrining yirik mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy va boshqa allomalarning ilmiy merosida axloqiy fazilatlar, ijtimoiy adolat, halollik, rahbar mas'uliyati va jamiyat farovonligining dolzarbligi ma'naviy-axloqiy jihatidan yoritilgan [6]. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi siyosiy-axloqiy qarashlari Yevropa va Osiyo tadqiqotchilari tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, uni fozil jamiyat konsepsiyasining poydevoriga aylantirgan [4]. Ibn Sino asarlarida axloqshunoslik, jamoa boshqaruvi, shaxs tarbiyasi bo'yicha mulohazalar mavjud bo'lib, bu qarashlar zamonaviy siyosiy pedagogika va ijtimoiy boshqaruv nazariyalarida qo'llanmoqda. Abu Rayhon Beruniyning ilm-fan, ijtimoiy tenglik, adolat haqidagi g'oyalari bugungi davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va ilmiy yondashuv zarurligini isbotlab beradi [5]. Alisher Navoiy asarlarida esa davlat arboblarining axloqiy javobgarligi, odil hukmdor modeli, jamoatchilik bilan muloqot madaniyatining ahamiyati ochib berilgan [4].

Sharq mutafakkirlaridan Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asari axloqiy tamoyillarini yorituvchi eng muhim manbalardan biri bo'lib, unda nafaqat ibodat masalalari, balki jamiyat boshqaruvi, axloq, ijtimoiy munosabatlar va rahbarlik odobi haqida ham keng qamrovli hadislar keltirilgan. Asarda "Kitob al-Ahkom", "Kitob al-Adab", "Kitob al-Mazolim", "Kitob ar-Riqaq" kabi boblar davlat siyosati, odil boshqaruv va jamoatchilik munosabatlarning ma'naviy poydevorlarini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi, zamonaviy boshqaruv falsafasi bilan uyg'un keladigan boy axloqiy-siyosiy qarashlarni o'z ichiga oladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Metodologik jihatdan maqola quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

1. Tarixiy-komparativ tahlil – mutafakkirlar asarlarining o'zaro qiyosiy tahlili.

2. Sotsiologik yondashuv – axloqiy qadriyatlarning jamiyat hayotiga ta'siri bo'yicha ijtimoiy tadqiqotlar ma'lumotlaridan foydalanish.

3. Kontent-tahlil – Sharq mutafakkirlarining asarlaridan axloqiy-siyosiy g'oyalarni tematik guruhlarga ajratish.

4. Empirik tahlil – zamonaviy davlat siyosatida axloqiy qadriyatlardan foydalanish bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar bilan ishlash.

Mazkur metodlar tadqiqot natijalarining izchilligini ta'minlaydi va Sharq merosining amaliy imkoniyatlarini ilmiy asosda baholashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sharq mutafakkirlarining merosida ilgari surilgan axloqiy tamoyillar zamonaviy davlat siyosati va jamoatchilikda konseptual asos bo'la olishi ilmiy adabiyotlarda ham yoritilgan bo'lib, amaliy boshqaruv tajribalarida jamoat madaniyati hamda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Davlat boshqaruvida adolat tamoyillarining mustahkamlanishi. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida adolatni boshqaruvning eng muhim poydevori deb bilgan. Bugungi davlatchilik amaliyotida adolatning ustuvorligi inson huquqlarini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurash, ijtimoiy tenglik siyosatini yuritishda o'z aksini topmoqda.

2. Jamoatchilik ongida ma'naviy immunitetning kuchayishi. Imom Buxoriyning asarlarida ilm-fan, tafakkur, ma'naviy poklikning jamiyat barqarorligidagi rolini alohida qayd etadi. Bu qarashlar hozirgi kunda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, internet madaniyati, informatsion xurujlarga qarshi kurashda nihoyatda muhim.

3. Jamoatchilik qadriyatlarida odob-axloqning roli. Imom Buxoriy asarining "Kitob al-Adab" bobida mehr-shavqat, muloyimlik, hurmat, yaxshi muomala, bir-birini qo'llab-quvvatlash kabi qadriyatlar jamiyat muvozanatining poydevori sifatida keltiriladi. "Muloyimlik har narsani ziynatlaydi" degan hadis [4] jamoatchilikda muloqot, murosaviy yondashuv va ijtimoiy uyg'unlikning zarurligini ko'rsatadi. Bu tamoyillar zamonaviy jamoatchilik siyosati va ijtimoiy kommunikatsiya strategiyalarida ham asosiy omillaridan biridir.

Tadqiqot davomida Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida axloqiy g'oyalarining asosiy yo'nalishlaridan zamonaviy davlat siyosati va jamoatchilikda foydalanish boshqaruvnung ma'naviy mezonlarini mustahkamlab, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi mumkin.

Mutafakkir	Asosiy axloqiy-siyosiy g'oyalar	Zamonaviy davlat siyosatida ko'rinishi
Forobiy	Fozil jamiyat, odil hukmdor, axloqiy boshqaruv	Adolat tamoyillari, ijtimoiy islohotlar, xalq farovonligi
Ibn Sino	Axloqiy kamolot, shaxs tarbiyasi	Ta'lim islohotlari, ma'naviy tarbiya, sog'lom fikrlash siyosati
Beruniy	Ilm, adolat, tenglik	Ilmiy asoslangan siyosat, shaffoflik, ochiq hukumat
Buxoriy	Odob, mas'uliyat, adolat	Axloqiy siyosat, xalq bilan muloqot, odil boshqaruv

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Sharq mutafakkirlarining merosi hozirgi davlat siyosati, jamoatchilik hayoti va ma'naviy tarbiya jarayonlarida yuqori ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosida ilgari surilgan axloqiy qadriyatlar va ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalar bugungi davlat siyosati va jamoatchilik boshqaruvi uchun ham o'z dolzarbligini yuqotmagan bebaho boylikdir. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy kabi ulug' allomalar fikrlarida adolat, halollik, ilmga tayanish, ma'naviyat, poklik, xalqparvarlik g'oyalari asosiy o'rin tutadi va ular zamonaviy siyosiy boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashadi. Jamiyatdagi axloqiy muhitning barqarorligi, davlat boshqaruvining adolatli bo'lishi hamda ma'naviy immunitetni mustahkamlash kabi masalalar mutafakkirlar merosidan oziqlanadi.

Allomalarning ilmiy merosi tarbiya jarayonida insonni komil qilib tarbiyalash, jamiyatni ma'naviy jihatdan mustahkamlash va yosh avlodning axloqiy yetukligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi global o'zgarishlar davrida aynan ana shunday ma'naviy poydevorga tayanish davlat barqarorligi, ijtimoiy birdamlik va jamiyat taraqqiyotining kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish, uni davlat siyosati, ta'lim va tarbiya tizimida, jamoatchilik boshqaruvida samarali tatbiq etish davlatning ma'naviy siyosatini mustahkamlashga, jamiyatning ijtimoiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Xudoyberdiyev R. Davlat boshqaruvi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2020.

(2). Sattorov A. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosi. Toshkent, O'zbekiston Milliy universiteti, 2018.
(3). Imom Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih (Sahihi al-Buxoriy). Toshkent, 1991.
(4).Forobiy A. Fozil odamlar shahri. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993, 280-bet.
(5). Beruniy A. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent, "Fan", 1987.
(6). Jo'rayev T. Sharq Uyg'onish davri merosi. Toshkent, "Fan", 2012.

Xolmirzaeva Jumagul Xamdamovna (Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), FarDU mustaqil izlanuvchisi; e-mail: nodirjon89.86@gmail.com)

MEHNAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI: YAPONIYA VA AQSH MISOLIDA

Annotatsiya. *Maqolada mehnat madaniyatini rivojlantirish masalasi xorijiy ilg'or tajribalar asosida tahlil qilingan. Xususan, Yaponiya va AQSHning mehnat va kasb madaniyatini shakllantirish bo'yicha amalga oshirgan samarali mexanizmlari o'rganildi. Tadqiqotda mazkur davlatlarda kasbiy ta'lim tizimi, inson resurslarini boshqarish, jamoaviy ishlash, innovatsion yondashuvlar hamda uzluksiz ta'limning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mehnat madaniyatini rivojlantirishda ta'lim, texnologiya va shaxsiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi asoslab berildi. Maqolada xorij tajribasini Yangi O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinib, amaliy xulosa va takliflar ilgari surildi.*

Kalit so'zlar: *mehnat madaniyati, kasb madaniyati, xorij tajribasi, Yaponiya, AQSH, inson kapitali, yoshlar, ta'lim tizimi, innovatsiya, mehnat bozori, jamoaviy ish, raqamlashuv.*

РОЛЬ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ТРУДА: НА ПРИМЕРЕ ЯПОНИИ И США

Аннотация. *В статье анализируется вопрос развития культуры труда на основе передового зарубежного опыта. В частности, изучены эффективные механизмы, применяемые Японией и США для формирования культуры труда и профессиональной деятельности. В исследовании подчеркивается важность системы профессионального образования, управления человеческими ресурсами, командной работы, инновационных подходов и непрерывного образования в этих странах. Также обосновывается взаимосвязь образования, технологий и личностного развития в развитии культуры труда. В статье анализируются возможности адаптации зарубежного опыта к условиям Нового Узбекистана и предлагаются практические выводы и рекомендации.*

Ключевые слова: *рабочая культура, профессиональная культура, зарубежный опыт, Япония, США, человеческий капитал, молодежь, система образования, инновации, рынок труда, командная работа, цифровизация.*

THE ROLE OF FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF WORK CULTURE: CASE STUDY OF JAPAN AND THE USA

Annotation. *This article analyzes the development of work culture based on advanced international practices. Specifically, it examines the effective mechanisms used by Japan and the USA to foster a work culture and professional activity. The study emphasizes the importance of vocational education systems, human resource management, teamwork, innovative approaches, and continuous education in these countries. It also substantiates the relationship between education, technology, and personal development in developing a work culture. The article analyzes the possibilities of adapting international experience to the conditions of New Uzbekistan and offers practical conclusions and recommendations.*

Keywords: *work culture, professional culture, international experience, Japan, USA, human capital, youth, education system, innovation, labor market, teamwork, digitalization.*

Kirish. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida inson kapitali, ayniqsa yoshlarning mehnatga munosabati va kasb madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamlashuv va mehnat bozoridagi keskin raqobat sharoitida mehnat madaniyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, rivojlangan xorijiy davlatlar, xususan, Yaponiya va AQSHning mehnat madaniyatini shakllantirish borasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni milliy shart-sharoitlarga mos holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorij tajribasi mehnat intizomi, jamoaviy ishlash, innovatsion fikrlash hamda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda samarali mexanizmlarni taklif etadi. Ushbu tajribalarni Yangi O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish yoshlarning kasbiy faolligini oshirish, mehnat unumdorligini yuksaltirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.